



MUSIQIY DUNYOQARASH TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

Abdusalimova Ma'muraxon Anvarjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti

"Musiqqa ta'limi va san'at"

kafedrasi 1 – kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy dunyoqarash tushunchasi va uning mazmun mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqqa, shaxs, barkamol avlod, hissiy tuyg'u, tarbiya, tajriba, emotsiional kechinma, madaniy, hayot.

Аннотация. В этой статье рассматривается концепция музыкального мировоззрения и ее суть содержания освещена.

Ключевые слова: музыка, личность, гармоничное поколение, эмоциональное чувство, воспитание, опыт, эмоциональное переживание, культурное, жизненное.

Annotation. In this article, the concept of a musical worldview and its the essence of the content is illuminated.

Keywords: music, personality, harmonious generation, emotional feeling, upbringing, experience, emotional forgiveness, cultural, life.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-sun qarorida belgilangan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lif muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi" va shunga o'xshash musiqqa san'atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilingani buning yaqqol tasdig'idir[1]. Aynan ana shu qaror va murojatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini takomillashtirishdagi ilmiy izlanishlar samarasi kadrlar tayyorlash masalasi e'tiboriga molikdir.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o'rinn tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muxim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish irnkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu - Nosir A1 -Farobi "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir", degan edi. Bobomiz SHayx Sa'diy aytgan "Musiqqa odam ruxining yo'ldoshidir". Musiqqa



insonga tez ta'sir etuvchi emotsiyonallar hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan, o"z kasbiga, Ona vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. SHaxsning, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama komil inson bo'lib etishuvida muxim omillardan biri musiqaviy ta'lif tarbiya hisoblanadi. CHunki musiqa kishini xush fazilatli, samimiy, ziyrak, ko'ngilchan, yuksak axloqiy fazilatlar hamda ma'naviy madaniyat egasi bo'lib etishishiga yordam berasladi.

Barcha millat, elatlar uchun musiqa tili yagonadir. Yosh avlodning badiiy estetik dunyoqarashini shakllantirishda milliy cholg'ularda kup- ovozlik va ijrochilik musiqasi umummusiqa ta'lif-tarbiyasini rivojlantiradi. Musika yozuvni xam butun dunyoda bir xil. SHuning uchun bu yozuvni intemasional yozuv deb bilamiz.

SHuni ta'kidlash lozimki O'zbekistonda inson ma'naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Musiqaning so'z san'ati va adabiyoti bilan uzviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

Mamlakatimizdagi demokratik jarayonlar natijasida xalqimiz ruhiyati, dunyoqarashida, axloqiy tasavvur va fikrlashlarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishimiz jamiyatimiz axloqiy madaniyatini ko'tarish uchun keng va naqd imkoniyatlar yaratmoqda.

Inson ruhiy olami, nozik his - tuyg'ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Yuksak ruhiy ko'tarinkilik, ajib his - tuyg'ular ichki kechinmalarini mutanosiblashtirishda jozibali musiqaning sehri ta'siri beqiyos ulkandir.

Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar.

Endilikda musiqaning jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqeい yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi. Musiqa mamlakatimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil sohadir. O'quv tarbiya jarayonida musiqa yosh avlodga ahloqiy-estetik tarbiya berishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi, ta'lif jarayonining bir qadar jadallahushi samaradorligi unga bog'liq.

Musiqaviy jihatdan savodxonlikka ega bo'lishning aniq maqsad hamda vazifalari mavjud. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda mavjud ilmiy va uslubiy yondashuv muayyan yo'nalishni belgilaydi. Musiqani o'zlashtirish, tinglash, ijro etish va undan hayotda manfaatdor bo'lish insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketadi.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqa har sohada, chunonchi, ta'lif - tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada



o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, san'at ne'matlaridan bahramand bo'ladi, ertangi kunning yanada porloq bo'lishi uchun kurashadi.

SHunday ekan, musiqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiyl munosabat hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la oladi. Musiqa kundalik hayotimizga qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli o'tadi.

Eng muhim musiqa bolalarning aqliy, axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifat parvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'limganda insonning axvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. SHu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi. O'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Russiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. CHunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy tahsirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. CHunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli tahsir etdi.

Bu borada V.A. Uspenskiy, Ye.E. Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zurur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy



madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko'rdi.